

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA Q'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI YO'NALISHI**

**II-KURS, 210-GURUH TALABASI HAYDAROV**

**SHERZOD MEHMONOVICHning**

**"TASVIRIY SAN'AT TARIXI" FANIDAN**

**YOZGAN**

# ***KURS ISHI***

**Mavzu: Antik davr san'ati va uning jahon san'ati va madaniyatida tutgan o'rni.**

**Bajardi:**

**Haydarov Sh.**

**Qabul qildi:**

**Kamolov I.**

**QARSHI - 2013**

## **Reja:**

### **Kirish**

### **Asosiy qism**

1. Antik san'at tushunchasi.
2. Egey yoki Krit-Mikena san'ati
3. Knos saroyi.
4. Arxaika davri Gretsiya san'ati.

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

## **Kirish**

Insoniyat tasviriyl faoliyatining eng primitiv bosqichlaridan to shu kungacha bulgan rivojlanish davri ko'plab maktablar , uslublar va oqimlarning paydo bulishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi – bularning barchasi ijodkorlarning tinimsiz harakati , ongli faoliyati, izlanishlari maxsuli sifatida xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotda sodir bulgan o'zgarishlarning ijodkor ongi va tafakkuriga ta'siri , his va tuyg'ularining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi natijasida paydo bo'lgan turli oqim va uslublarning har biri o'ziga hosdir . Shu sababli ham ular san'at tarixida qay darajada o'rin tutishidan qat'iy nazar o'rganishni , tahlil qilishni taqozo etadi. Bu uz navbatida tasviriyl san'at asarlarini o'qishni o'rganishda , badiiy saviyasi va qiymatini anglashimizda benixoya kata ahamiyat kasb etadi , deb uylaymiz. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniyl qadriyatlar oddiyl boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-uylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviyl-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. Tasviriyl san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.

Rangtasvir tasviriyl san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriyl san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o'rin egallaydi.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki inqirozi eramizdan avvalgi 5000—4000 yillarda boshlanib (qadimgi Misr, Old Osiyo, Xitoy, Xindistonda), yer yuzida quldorlik davlatlari rivojlanish davri boshlandi. Qadimgi davlatlar dastlab Efrat, Tigr, Nil, Ind, Gang, Xuanxe, Yantszi, qizil irmoq daryolari yoqalarida, keyinroq, Yevropaning janubiy tomonlarida, Bolqon va Apennin yarim orollarida paydo bo'ldi.

Quldorlik davlatlarining maydonga kelishi tarixiy zaruriyat bo'lib, u ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Bu davrga kelib aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajraldi. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo - sotiq, xunarmandchilik, san'at rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, inson manaviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, sanatning ravnaqiga zamin yaratdi. Agar ibtidoiy jamoa davrida sanat insonning kundalik hayoti, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, endilikda u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylandi va ijtimoiy hayotda muhim o'rin tuta boshladi. Bu davrda sanat taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zahirida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali rux ola boshladi. Ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf odatlar muhim tantanalarga aylandi. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relief va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'landi. Qadimgi dunyo sanatkori o'ziga xos formalarda kundalik turmush voqealarini aks ettira boshladi. Bu davrga kelib, odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgara bordi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga - xudolarga sajda qila boshladilar. Bu xudolar timsolida odamlar aqliy barkamol, mu'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z xarakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularga atab hashamatli ibodatxonalar, monumental haykallar yaratdilar. Shu bilan birga, inson

obrazi sanatning bosh qaxramoniga aylana boshladi. Uning jasorati va olijanoblighi, iroda va aql-zakovatining qudrati sanatkorlar tomonidan kuylandi.

Sanatda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda sanatda sintez masalasining xal etilishi esa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo sanatining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yaqqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, xarakteri, voqelikni obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi. Odatda, qadimgi dunyo san'ati ikkiga ajratilib o'rganiladi. qadimgi sharq mamlakatlari san'ati va ikkinchi qismi Evropa mamlakatlari, aniqrog'i uning janubiy tomonlarida shakllangan quldorlik davlatlari san'ati va madaniyati tarixini o'rganish nazarda tutiladi. Bu davlatlar Antik madaniyat va san'at bo'limiga kiritilgan.

### **1. Antik san'at tushunchasi.**

Antika iborasi latinchа «antikvus» so'zidan olingan bo'lib, «qadimiy» degan ma'noni bildiradi. Bu ibora XV asrda Italiya gumanistlari tomonidan kiritilgan va asosan, qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun ishlatilgan. Antik dunyo san'ati va madaniyati tarixi eradan avvalgi 3000 yillardan to yangi eraning V asrigacha O'rta Er qavzasi qamda orta dengiz sohillarida mavjud bo'lgan quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davrida mavjud bo'lgan san'at tarixini o'rganadi, taxlil qiladi. Evropa, Osiyoning bir qismi hamda Shimoliy Afrikada yashagan xalq va qabilalar san'ati ham qisman antik san'atga aloqadordir. Chunki ular ham grek va rimliklar bilan uzoq vaqt aloqada bo'lib, ularning sanat va madaniyatidan baxramand bo'lganlar, ayrim davrlarda grek va rimliklar san'atiga va madaniyatiga o'z ta'sirlarini ham o'tkazganlar. Shuning uchun antik san'at va madaniyat san'ati deyilganda, shu xalqlar va qabilalar san'ati qamda madaniyatini qam nazarda tutish lozim. Albatta, antik dunyo madaniyati va sanatining ijodkorlari qadimgi Yunoniston va unga

yaqin bo'lgan orollarda qachonlardir yashab ijod etgan qadimiy greklarning ajdodlaridir. Greklar o'zlarini ellinlar deb, o'z mamlakatlarini esa Ellada deb atagailar. Ellada san'ati keyinchalik Iskandar Zulqarnayn(Aleksandr Makedonskiy) bosib olgan juda katta imperiya san'atining rivojlanishiga ta'sir o'tqazdi. Elladaliklar sanati qadimgi Rim san'atiga tasir etdi. Rimliklar grek sanatini e'zozladilar, o'rgandilar va uni yangi poqonaga olib chiqdilar. Antik madaniyat va sanat tarixi 476 yili Rim imperiyasining qulashi bilan tugallanishini qam shu bilan izoqlash mumkin. Antik san'at asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o'ziga jalb etib kelmokda. Evropa xalqlari shu sanat va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma'naviy boyliklarga murojaat qilib keldilar. Bugungi Evropa tasviriy san'ati va teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadn. Uyqonish davri, XVII asrda paydo bo'lgan klassitsizm badiiy oqimi namoyandalari ijodi qam antik dunyo san'atiga taxlid qilish asosida rivojlandi. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, O'zbekiston xalqlari qam ellinlar madaniyati va san'atidan baxramand buldilar. Buni O'zbekiston tuproqidan topilgan va topilayotgan grek madaniyati va san'atiga oid juda ko'p namunalar yoki ular ta'sirida yaratilgan madaniyat yodgorliklari shundan dalolat beradi.

## **2. Egey yoki Krit-Mikena san'ati**


Antik madaniyat uzoq vaqt davomida rivojlanib bordi. Uning rivojlanishida Peloponnes yarimoroli va Egey dengizidagi orollarda, Kichik Osiyoning g'arbiy sohillarida eramizdan avvalgi III—II minginchi yillarda yashagan qabilalar madaniyati muhim rol o'ynadi. Bu madaniyat yodgorliklarining dastlabki arxeologik kashfiyotlari Mikena va Kritda topilganligi va mo'lligi tufayli bu madaniyat adabiyotlarda ba'zan krit-miken madaniyati deb ham yuritiladi. Egey madaniyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi 2000 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda xashamatli me'morchilik majmualari barpo etilgan. Podsho saroylari, tasviriy va amaliy-bezak san'at asarlari yaratilgan. Shunday nodir yodgorliklardan biri ingliz arxeologi A. Evans tomonidan Kritdan topilgan Knoss saroyining qoldiqlaridir. Rasm 1

### 3. Knos saroyi

1



2



3

. 1. Кносс саройи реконструкцияси. 2. Сарой устунлари 3.ички хона(интерьер) ко'риниши Эр. ав. XVI аср.

Bu saroy uncha baland bo'lmagan tepalik ustiga qurilgan. Saroy tabiat bilan uyg'unlashib ketgan. Binolar loihalashtirishi erkin. Binoning g'arbiy tomonida xonalar bo'lib, u yerlarda, podsho boyliklari, qurollar, katta xumlarda turli oziq-ovqatlar saqlangan. Markaziy tomondagi xonalarda esa xunarmandlarning ustaxonalari joylashgan. Knoss saroyinnng markaziy maydoni atrofida yuzlab uncha katta bo'lmagan xonalar, mehmonxona, ibodatxona, podsho xonalari, diniy marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan xonalar bo'lgan. Bu xonalar bir-biri bilan zina va narvonlar orqali bog'langan. Knoss saroyida ustunlardan keng foydalanilgan. Tosh tagkursiga o'rnatilgan yog'ochdan ishlangan ustunlar Knoss saroyining tepa tomonini ko'tarib turish uchun ishlatilgan. Bu ustunlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular pastga tomon torayib borgan. Rasm 2. Saroy devorlariga suratlar ishlangan, pollari esa bejirim naqshlar bilan bezatilgan. Devoriy suratlar mavzusi kritliklarning hayoti, mehnati, xordiq chiqarishiga bag'ishlangan. Turli qush va hayvonlar rasmi ham jonli chizilgan. Saroydagi diniy



marosimlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan taxtli zal, ayniqsa, nafis ishlangan. Devor qizil rangga bo'yalgan va shu rang ustidan oq, to'liqsimon chiziqlar bilan papirus novdasi va ular orasida afsonaviy hayvonlar—burgut boshli sherlar(grifonlar) tasvirlangan.



4



5

**4.Knoss saroyi devoriy rasmlari. Grifon. Er. av. XVI asr. 5.Parijlik ayol. Mil. av. XVI asr. Knoss saroyi devoriy surati parchasi. Afina. Milliy muzey**

Knoss saroyida ayol tasviri yaxshi saqlangan Rasm 5. Arxeologlar uni «parijlik ayol» deb nomlaganlar. U shaffof materialdan tuqilgan libos kiyib olgan. Ayol boshi yon tomondan ishlangan, ko'zi esa old tomondan tasvirlangan.

Monumental haykaltaroshlik bu yerda uchramaydi. Lekin mayda haykaltaroshlik ( Rasm 6. Ilon ushlagan ma'buda. mil. av. XVI asr), amaliy-bezak, tosh-taroshlik va zargarlik sanati borasida kiritliklar nodir yodgorliklar qoldirganlar. Ilon ushlagan ma'buda haykalchasi shunday yodgorliklardan Rasm 6.



**Rasm 6. Ilon ushlagan ma'buda. Mil. av. XVI asr. Knoss saroyidan topilgan haykalcha. Afina. Milliy muzey.**

Ular toshtaroshlikda ham juda mohir bo'lib, undan vazalar ishlaganlar, nafis bo'rtma tasvirlar yaratganlar. Hayvonlarini( Rasm 7. Echki o'z bolalari bilan. Mil.av. 1600 yil.), ayniqsa, turli dengiz hayvonlarining bo'rtma tasvirlarini zo'r mahorat bilan ishlaganlar. Inkrustatsiya ishlash, turli ashyolardan badiiy asar yaratishda ham mohir bo'lganlar(Rasm 8. Xo'kiz boshi shaklidagi riton).



**7. Echki o'z bolalari bilan. Mil.av. 1600 yil. Knoss saroyi devoriga ishlangan bo'rtma tasvir. Gerakleyon, muzey. 8. Xo'kiz boshi shaklidagi riton. Knoss kichik saroyi. Mil.av. XVI asr.**

Kritliklar kulolchilik sanatida ham katta yutuqlarga erishganlar. Kulolchilik buyumlarini maxsus bo'yoqlar bilan sirlab, yuzasini turli naqsh, dengiz hayvonlari va o'simliklarning tasviri bilan bezaganlar. Kamares ko'zasi.(Rasm 9), Meduza surati tushirilgan xum (Rasm 10) shunday asarlardan .




**9. Kamares ko'zasi. 1800 yil. Gerakleyon. Muzey 10.Meduza surati tushirilgan xum.**

Eramizdan avvalgi XIV asrga kelib, Krit madaniyati inqirozga yuz tutdi. Endilikda Egey madaniyatining markazi grek materigiga— Peloponnes yarimoroli va undagi Miken, Tirinf manzillariga ko'chdi. Bolqon yarim orolining janubida, Egey dengizi orollarida va Kichik Osiyoning G'arbiy sohillarida yashagan axeyaliklar bu yangi madaniyat taraqqiyotini belgiladilar.

Eramizdan avvalgi XVII—XIV asrlardan boshlab, axeyaliklar madaniyati va sanati o'z xarakteri jihatidan Krit madaniyati bilan aloqada bo'lgan, lekin bu yaqinlik axeyaliklar sanatining o'ziga xos original tomonlari ham mavjud

ekanligini inkor etmaydi. Bu ayniqsa, monumental memoralik san'atida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kritdagi shaharlar qalin devorlar bilan o'rashga muxtoj emas edi. Chunki shaharni dengiz quriqlar edi. Aksincha, axeyaliklar o'z turar joyi va qo'rg'onlarini baland tepaliklar ustiga qurib, uning atrofini qalin devorlar bilan o'rab chiqqanlar. Keyinchalik greklar bunday manzillarni «akropol»— «yuqori shahar» deb nomladilar. Bizgacha Miken va Tirinfdagi baland tepaliklar ustiga qurilgan qal'alar, qo'rg'onlar yetib kelgan. Ular eramizdan avvalgi XIV—XIII asrlarda qurilgan. Bu qo'rg'onlarning devorlari og'irligi 5—6 tonna keladigan toshlardan qurilgan bo'lib, devorning qalinligi 6—10 m, xatto undan ham ortiq bo'lgan. Masalan, Tirinf qo'rg'oni devorining qalinligi 17,5 m bo'lgan. Devor ichi bo'shliq bo'lib, u yerda xazina, oziq-ovqat, qurol-aslaha saqlangan. Rasm 11.



**Rasm.11 Tirinfdagi akropol. Rasm 12. Sherlar darvozasi.**

Tirinfdagi akropol sodda, atrofi qalin devor bilan o'ralib, uning uch darvozasi bo'lgan. Miken me'morligida darvoza qurilishiga katta etibor berilgan. Miken qo'rg'onining markaziy darvozasi «sherlar darvozasi» deb nomlangan. Darvoza atrofi yaxlit katta toshlardan qurilgan. Rasm 12. Tepasiga ustunlarni ushlab turgan ikki sherning bo'rtma tasviri ishlangan. Bu ustun Miken podsholari qudrati va birligining ramzi bo'lgan. Tirinf va Miken saroylarining devorlari alebastr bilan

ishlanib, devoriy suratlar bilan bezatilgan. Mikenalari rassomlari ov manzaralari(Rasm 14.Cho'chqa ovi), akrobatlar qayotidan olingan voqealarni(Rasm.13. Akrobatlarning buqa ustidan sakrashlari), ayniqsa, jang manzaralarini tasvirlashni sevishgan.



13



14

**Rasm.13. Akrobatlarning buqa ustidan sakrashlari. Rasm.14. Cho'chqa ovi.**

Tirinf-Mikenalari devoriy suratlarini Krit san'atkorlarining asarlaridan badiiy jihatdan bo'shligi, figuralarning birmuncha statikligi, chizilgan suratlarining quruqligi bilan ajralib turadi. Axeyaliklar yaratgan kulolchilik buyumlari o'z shakli jihatidan. Krit kulollari yaratgan shakl va uslubini qaytaradi, lekin vaza yuzasiga ishlangan dengiz hayvonlari va o'simliklari tasviri birmuncha soddalashtirilgan, ko'p xollarda naqsh ritmiga bo'ysundirilgan. Mikenalari-Tirinfidagi maqbaralarda arxeologlar badiiy xunarmandchilikka oid qimmatbaxo buyum va oltin niqoblar topishgan. Bu maqbaralar ichida Shox Atrey maqbarasi va u yerdan topilgan nodir san'at yodgorliklari mashhurdir.





### **Shox Atrey maqbarasi ichki ko'rinishi.**

Bu yerda oltin, tog' xrustalidan ishlangan idishlar, o'ymakorlik bilan bezalgan buyumlar topilgan. Sher boshli oltin vaza, kabutarlarning bo'rtma tasviri tushirilgan oltin qadax, inkrustatsiya qilingan bronza xanjarlar axeyaliklarning mohir san'atkor bo'lganliklaridan dalolat beradi. Hozirgi Vafio (Peloponnes)dagi maqbaradan topilgan ikki oltin qadah ham o'zining nafis va badiiy bezatilganligi bilan ajralib turadi. Ular yuzasiga ishlangan buqa ovi bo'rtma tasviri juda jonli chiqqan. Rasm 15



**Rasm 15. Oltin qadax.**

Eramizdan avvalgi XII asr o'rtalarida Bolqon yarimorollarining shimolidan janubga tomon siljiy boshlagan doriy qabilalarining Egey orollaridagi davlatlarni bosib olishi Peloponnesdagi Egey madaniyatining tugashiga sabab bo'ldi. Lekin uning boy madaniyatining keyingi ellin madaniyatiga ta'siri kuchli bo'ldi.

Elladaliklar Egey madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirdilar. Ular Krit-Miken diniy-mifologik tushunchalarini qabul qildilar. Kulolchilik, mayda plastika san'ati an'analari Ellada san'ati taraqqiyotida davom ettirildi.

### **Qadimgi Gretsiya san'ati**

Odatda, qadimgi Gretsiya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi XI asrdan to eramizdan avvalgi I asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Qadimgi quldorlik davlatlaridan bo'lgan Gretsiyada jahon san'ati tarixida birinchi marta demokratik tamoyillar kamol topdi. Greklar birinchi bor badiiy ijodda insoniyatning asriy muammolarini yechishga urindilar. Ular botirlik, jasorat, vatan mehri va hur insonning qudratini ulug'ladilar, uning jismoniy go'zalligi va manaviy barkamolligini ifodalab, ideal, barkamol inson obrazini yaratishga intildilar. Buyuk Sofoklning «Tabiatda insondan kuchli zot yo'q,— degan fikri davr estetikasi, dunyoqarashini namoyon qiladi. Qadimgi Gretsiyada faoliyatli, davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan insonni ulug'ladilar. Irodali, vatanni sevadigan va uning uchun kurasha oladigan inson obrazini ideal inson deb bildilar. Har to'rt yilda o'tkaziladigan Olimpiya musobaqalari esa, erkin ellinning jismoniy va ma'naviy shavkatini namoyish etuvchi bayramga aylandi, g'oliblarga haykallar o'rnatildi. Qadimgi grek san'ati diniy marosimlar, mifologiya bilan bog'liq holda rivojlandi. Lekin grek dinida qadimgi Misr yoki ikki daryo oraliqidagi davlatlarda mavjud bo'lgan koxinlar yo'q edi. Ularning xudolari erdagi odamlarga o'xshaydi. Ular inson kabi xatolarga yo'l qo'yadi, farqatni sevadilar. Grek dinida ularning dunyo, aql-zakovat kuchi to'g'risidagi tushunchalari o'z ifodasini topdi. Sodda, lekin rang-barang grek mifologiyasida fan, falsafa kurtaklari shakllana boshladi. Xudo va ma'abudalarni odam qiyofasida tasvirlab, mifologiyani haqiqiy hayotga yaqinlashtirdilar. Grek xudo va ma'budalarida, masalan, Apollon (nur xudosi), Afina (xunarmandchilik va

deqqonchilik ma'budasi) va boshqa ma'budalar timsolida greklar o'zlarining tasavvuridagi barkamol inson qiyofasini gavdalantirdilar.

#### **4. Arxaika davri Gretsiya san'ati.**

Doriylar istilosi natijasida Gretsiyada kichik-kichik quldorlik davlatlari paydo bo'ldi. Bu davlatlar istehkom bilan o'rab olingan manzillardan iborat bo'lib, quldorlar yerlari va o'z mulklari bo'lmish qullarni himoya qilganlar. Bu davlatlar qadimgi greklarda polislar, ya'ni shahar- davlatlar deb nom olgan. Mulkiy tabaqalanish davom etib, kiborlar hukmronligi orta boshlagan. Bu keskinlik ezilgan ommani kurashga chorlagan. Bu kurash g'alaba bilan tugab, zodagonlarning xuquqlari chegaralanishi natijasida katta bo'lmagan polislarda quldorlik demokratiyasi paydo bo'lgan. Arxaika davrida Gretsiyada ilmiy fikrlar rivojlandi, meditsina, astronomiya, tarix, geografiya, matematika taraqqiy qildi, sh'eriyat, adabiyot, teatr kamol topdi, grek yozuvi paydo bo'ldi. Greklar o'zlaridan avvalgi xalqlar, eng avvalo, Sharq mamlakatlari—Bobil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining qaytarilmas san'at va madaniyatlarini yaratishga muyassar bo'ldilar. Shu bilan birga, keyingn Evropa ilmiy-ijodiy taraqqiyotida muhim poydevor yaratdilar.

1. Odatda eradan avvalgi VII—VI asrlar grek san'ati va madaniyati tarixi **arxaik, ya'ni qadimgi (grekcha «arxeyos»— qadimgi)** davr deb nomlanadi. Chunki XIX asrda boshlangan arxeologik kashfiyotlarga qadar qadimgi Gretsiya tarixi eradan avvalgi VIII asrdan boshlanar edi. Bu ibora hozir ham saqlanib qolgan.

**Me'morlik.** Arxaika davri me'morlik san'ati shaqarlarning rivojlanishi va qurilishi bilan bog'liq. Shaharlarning muhim ijtimoiy markazi xudo yoki ilohiylashtirilgan qahramonlarga atalib qurilgan ibodatxona bo'lib, u yerda shahar, davlat xazinasini va badiiy boyliklar saqlanar edi. Uning oldidagi maydonda esa yig'ilishlar, bayram tantanalari o'tilar edi. Bu ibodatxona o'z xarakteri jihatidan




shahar markazini tashkil etib, grek jamoasi, shahar-davlatning ulug'vorligi va birligini bildirar edi. Uning old tomoni quyosh chiqish tomonga qaratib qurilgan.

Ijtimoiy hayot formalarining o'zgarishi shahar qurilishida ham o'z ifodasini topdi. Bu davrda qurilgan shahar, odatda, tepalikka qurilgan akropol atrofida joylashib, tepalikning eng yuqori qismida polisning xaloskori bo'lgan ma'budaga atalgan ibodatxona, akropol etaklari va yon bag'rida esa turar joy kvartallari qurilgan. Bu kvartallar loyihasi erkin, stixiyali tarzda paydo bo'lgan. Har bir polis ibodatxona qurilishiga alohida e'tibor berib, uning boshqa polis ibodatxonalaridan ajralib turishi, ko'rkam va ulug'vor bo'lishiga e'tibor bergan.

Grek ibodatxonalari bir necha tipda bo'lgan. Arxaika davrining sodda tipi antli ibodatxona bir xonadan - naosdan iborat bo'lgan va u sharqqa qarab qurilgan. Uning yon tomonida chiqib turgan devorlar-antlar oraliqidagi old tomonda ikki ustun bo'lgan. Prostil ibodatxonaning birmuncha murakkab tipi bo'lib, uning old tomonida to'rtta kolonna - ustunlar o'rnatilgan. Amfiprostilda esa binoning ikki tomonida to'rttadan ustun o'rnatilgan bo'lgan. Orqa tomondan ibodatxonaning zaxirasiga kirilgan. Grek ibodatxonalari ichida eng keng tarqalgan tipi peripter hisoblangan. To'rtburchak shaklida bo'lgan bu ibodatxonaning atrofi ustunlar bilan o'rab chiqilgan. Ibodatxonaning bu tipi milodan avvalgi VII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan.

Peripter tipda qurilgan binoning markaziy qismi muqaddas yer — sella bo'lib, atrofi esa ustunlar bilan o'ralgan. Grek me'morchiligining bu tipi faqat grek me'morchiligidagina emas, balki jahon me'morchilik san'ati rivojida ham katta rol o'ynadi. Me'morlik rivojlanib borgan sari, ellada ustalari ustun va to'sinlarga, ular orasidagi bog'lanish, dekorativ bezaklarning eng minimal tomonini topish, badiiy va funktsional tomonining uyqun bo'lishiga harakat qildilar. Bu butun badiiy tizim order nomini oldi, (latinka «ordo» — tuzilish, tartib ma'nosini bildiradi). Order keyinchalik Gretsiya me'morligining asosiy xususiyatini belgilovchi muhim tomonga aylandi.

Grek me'morligining asosiy orderlari **doriy va ion orderi** qisoblanadi. Doriy orderi, asosan, Peloponnes va Buyuk Gretsiya (Sitsiliya shunday deb atalgan), ion orderi Ioniya deb nomlangan Kichik Osiyo sohillarida ko'proq ishlatilgan. Doriy orderida ishlangan ibodatxona yuqoriga kichrayib boruvchi uchta supacha tarzidagi tosh asos stereobatga qurilgan. Ustunlar tagliksiz (bazasiz) bo'lib, ular tepaga torayib boruvchi shaklda yaratilgan. Yuzasiga esa tarnovchalar — kannelyuralar ishlangan.




### **Doriy orderi.**

Doriy ustuni bevosita stilobat (stereobatning so'nggi supachasi)ga(14) o'rnatilgan. Ustunning tepa qismi exin (dumalok. shakldagi yostiqcha)ga taqaladi(10). Uning tepasida esa abak (to'rtburchak shaklidagi plita)(9) bo'lib, unga antabliment (arxivra, karniz va friz) qo'yiladi. Doriy orderi arxivravi (ustunga qo'yilgan to'sin) tekis ishlangan, friz esa metop (to'rtburchak plitalar)(6) va tringliflar (vertikal tarnovchali-kannelyurli plita)dan (5)tashkil topgan.

Ibodatxona tomi ikki nishabli bo'lib, uning old va orqa tomonida hosil bo'lgan uchburchakli maydon fronton deb atalgan.

Fronton va metoplar bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Ibodatxonaning tomi burchaklariga akroteriyalar o'rnatilgan. Arxaika davrida fronton va tringliflar yuzasi ko'k, metoplar yuzasi qizil rang bilan bo'yalgan.



### **Ion orderi.**


Ion orderi eramizdan avvalgi VII asr oxirlarida paydo bo'lgan. U doriy orderidan o'zining nafisligi, bejirimligi hamda tag tomonida stilobatga qo'yilgan tagkursining mavjudligi bilan ajralib turadn. Ion orderida tarnovchali ustunining kapitelinini ikki tomonga buralib turgan jingalak sochni eslatuvchi shakl valyuta(8), exin va abak tashkil etadi. Arxitrav esa uchta gorizontal tasma tekislikka ajratilgan. Friz lentasimon qilib ishlangan va bezaksiz.



### **Korinf orderi.**

Korinf orderi birmuncha kechroq klassika davrida paydo bo'ldi. U ion va doriy orderiga nisbatan jimjimador va ko'rkam, kapiteli akanf daraxti barglaridan tashkil topgan buketni eslatadi. Grek orderlari antik dunyo davlatlarida, Uyg'onish davri va Yangi dunyo me'morchiligida keng ishlatildi va rivojlantirildi.

Ilk arxaika ibodatxonalari birmuncha past va uzunchoq qilib ishlangan. Ularning ko'rinishi vazmin va salobatli. Pestumdagi (Italiya) Gera ibodatxonasi (er. av. VI asr o'rtalarida qurilgan) shu xususda xarakterli.



**Pestumdagi (Italiya) Gera ibodatxonasi**

Korinfdagi Apollon ibodatxonasi (er. av. VI asr ikkinchi yarmida qurilgan) peripter tipdagi doriy orderida ishlangan bo'lib, uning old tomonida 6, yon tomonida 15 ustun o'rnatilgan. Bu ibodatxonada qam arxaika me'morligining xarakterli tomonlari ochiladi. Efesdagi Artemida ibodatxonasi ion orderida ishlangan, u hajmining kattaligi va badiiy bezaginning serqashamligi bilan ajralib turadi.


**Haykaltaroshlik.** Arxaika davrida grek monumental haykaltaroshligi kamol topa boshladi. Toshidan yaratilgan haykallar namunasi esa eramizdan avvalgi VII asrlarga to'g'ri keladi. Bu haykallarning rivojlanishida Krit san'atkorlarining ta'siri sezilarli bo'lgan. Arxaika haykallari diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lib, birmuncha sxematik holda ishlangan. Eramizdan avvalgi VII asr oxirlarida va ayniqsa, eramizdan avvalgi VI asrlardan boshlab, haykaltaroshlikda realistik tamoyillar kuchaya boshladi. Yaratilgan haykallarda gavda nisbatlarini to'g'ri olish bilan chegaralanmay, shakl plastikasi, chiziqlarning emotsional tomonlari ham hisobga olinib boshlandi. Kiyimlardagi jimjimadorlik, ularning fakturasi shaffofligi, egiluvchanligi, mayinligi mahorat bilan ko'rsatildi. Samoslik Gera, deloslik Artemida haykallarida shular ko'zga tashlanadi. Arxaika davri haykaltaroshligida odam gavdasini alohida tasvirlash bilan birga, voqealarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar, masalan, olishuvlar ko'rsatiladi. Persey va Gerakl qahramonligiga, xudolar va gigantlar jangiga bag'ishlangan kompozitsiyalar shu davr haykaltaroshligi maxsulidir.

Greklarning polis ideal grajdani to'g'risidagi tasavvuri kiyimsiz xolda tasvirlangan yigitlar - kuroslar obrazida namoyon bo'ldi. Ilk arxaika davrida yaratilgan kuroslar obrazi kam harakat va birmuncha qotib qolgan holda tasvirlangan. Haykal kompozitsiyasi frontal va simmetrik holda echilgan.

Peloponneslik qaykaltarosh tomonidan yaratilgan Kliobis va Biton haykalida umumlashma, yaxlit shakl olingan, tors, suyak va muskullari yengil belgilangan. Faqat oldinga tashlangan oyoq haykalga harakat kiritadi va undagi sxematizmning keskin ko'zga tashlanishidan saqlaydi. Haykalda jismoniy kuch uluqlanadi. Bu g'oyani yoritishda, umumlashma badiiy shakl, tasvirlanuvchining pastroq qilib ishlangan qomati hamda bo'rttirib ko'rsatilgan keng elka, baquvvat oyoqlari qo'l kelgan. Haykaltarosh jingalak soch va uning taralishiga alohida e'tibor bergan. Eramizdan avvalgi VI asrning o'rtalariga kelib, kuroslar obrazidagi realizm orta bordi. Gavda, tana, bosh, qo'l, oyoq nisbatlari to'g'ri olinib boshlandi. Haykaltarosh gavda plastikasi go'zalligi, tabiiy va hayotiylikiga e'tibor berib, o'z



asarlarni sxematiklik va qotib qolgan holda tasvirlanishdan xoli eta bordi. Kuroslar yuzida tabassum paydo bo'la boshlaydi.



**Rasm 2.3 «Arxaik tabassum».Rasm 4. Teneylik Apollon haykali**


"Arxaik tabassum" deb nom olgan bu xususiyat xaykaltarosh obrazning xushchaqchaq, quvnoq, hayotsevar qilib tasvirlashga intilganligidan dalolat beradi. Teneylik Apollon haykalida shu xislatlar bor. Lekin uning sochi, ko'zi va sun'iy tabassumida arxaika davri xislatlari saqlangan. Arxaika davri plastikasining yutuqlari kiyimda tasvirlangan qizlar-koralar haykalida namoyon bo'ladi. Haykallar o'zining nafis, xis-tuyquga boyligi, ayollarga xos bo'lgan latofat, iffat va nazokatni ifoda etganligi bilan kishiga estetik zavq beradi. Bejirim va go'zal, aniq nisbatdagi qaddi qomatlari, mayin tabassumi, yengil hayolga cho'mgan ko'zlari san'atkor tomonidan yuksak mahorat bilan ishlangan. Kiyimlarning jimjima va buklanib turishlari, ularga hamoxang bo'lgan sochlarining taralishi ham haykallarga alohida latofat baxsh etadi.

Arxaika davrida xudolar bilan bir qatorda, jismoniy baquvvat va jasur jangchi, nozik, nazokatli ayollar obrazlarining yaratilishi grek jamoasida sanatning

tarbiyaviy roli ortib borishini ko'rsatuvchi dalillardir. Arxaika davrida loydan ishlangan va bo'yalgan mayda haykallar ham ko'p ishlangan. Bu haykallarda xudolar, turli hayvonlar, hayotiy lavhalar tasvirlangan.

**Rangtasvir, amaliy-dekorativ sanat.** Qadimgi grek rangtasvir san'atining namunalari bizgacha yetib kelmagan. Bu sanat to'g'risida biz shu davrga mansub kulolchilik buyumlari yuzasiga ishlangan rassomlik asarlari asosida o'sha davr rangtasviri mavzusi, xarakteri to'g'risida tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Arxaika davri amaliy-dekorativ sanat hamda hunarmandchilikning haqiqiy gullagan davridir. Ayniqasa, ko'za va boshqa kulolchilik buyumlariga surat ishlash san'ati sohasida bu davr san'tatkorlari juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Grek ko'zalari shakl va hajm jihatidan rangbarang bo'lib, turli maqsadlarda ishlatilgan va shunga qarab turlicha nomlangan.



**Grek ko'zalari.**

Ko'za yuzasiga ishlangan suratlar mavzusi, mifologiyadan olingan syujet yoki hayotiy voqealarga bag'ishlangan. Arxaika davrining ko'zaga surat solish san'ati dastlab qora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Bunday vazalarga qora lok bilan turli tasvirlar ishlaganlar. Ayniqsa, qora figurali vazalar ishlash sanati VI asrning II—III choragida rivojlanib, bu sohada attikali kulollar va rassomlar nom chiqarishgan. Shunday mashhur ustalardan biri, rassom Klitiy bo'lgan. U jahonga mashhur bo'lgan «Fransua vazas»ni bezagan. Vaza yuzasiga 200 dan ortiq odam tasviri tushirilgan.



## XULOSA

Insoniyat tasviriyl faoliyatining eng primitiv bosqichlaridan to shu kungacha bulgan rivojlanish davri ko'plab maktablar , uslublar va oqimlarning paydo bulishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi – bularning barchasi ijodkorlarning tinimsiz harakati , ongli faoliyati, izlanishlari maxsuli sifatida xarakterlanadi.

Quldorlik davlatlarining maydonga kelishi tarixiy zaruriyat bo'lib, u ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Bu davrga kelib aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajraldi. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo - sotiq, xunarmandchilik, san'at rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, inson manaviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, sanatning ravnaqiga zamin yaratdi.

Antika iborasi latinceha «qadimiy» degan ma'noni bildiradi. Bu ibora XV asrda Italiya gumanistlari tomonidan kiritilgan va asosan, qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun ishlatilgan. Antik dunyo san'ati va madaniyati tarixi eradan avvalgi 3000 yillardan to yangi eraning V asrigacha O'rta Er qavzasi qamda orta dengiz sohillarida mavjud bo'lgan quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davrida mavjud bo'lgan san'at tarixini o'rganadi, tahlil qiladi. San'at tarixida bu davr juda katta o'rin tutadi. Antik davr san'atining butun dunyo san'ati va madaniyatiga ta'siri juda yuqori bo'lgan

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 1-tom. Toshkent. O’qituvchi, 1986 yil.
2. Abdullayev N.U. “San’at tarixi” . 2-tom. Toshkent. San’at, 2001 yil.
3. Oydinov N. “O’zbekiston tasviriy san’atidan lavhalar” Toshkent, O’qituvchi. 1997 yil.
4. S. Abdurasulov, N.Tolipov. “Tasviriy san’at o’qitish metodikasi” Toshkent, “Aloqachi”, 2007 yil.
5. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'Uanma. T., 2004-yil.
6. S. Abdurasulov, B.Boymetov. Tasviriy san’at. Toshkent, 2006 yil.
7. Abdurahmonov O’.M. Rangtasvir va kompozitsiya - Toshkent , 1995